

ЎЗБЕКИСТОННИНГ XI-XII АСРЛАРГА ОИД ЁДГОРЛИКЛАРИ ИНТЕРЕРЛАРИДА ГАНЧ БЕЗАКЛАРИНИНГ КЎЛЛАНИЛИШИ

А.Р.Матязов,

*“Amaliy bezak san’ati” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,
Toshkent, O‘zbekiston.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning XI-XII asrlarga oid ganch bezaklari to‘g‘rsida so‘z yuritiladi. Ganchkorlik san’atimiz faxri, beqiyos va bebaho hazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Ganch o‘ymakorligi san’ati asrlar davomida o‘ziga xos uslub bilan rivojlanib kelgan. Bu san’atning eng qadimgi, o‘rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko‘zdan kechirib, o‘rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o‘ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi obidalar, restavratsiya , ganchkorlik konservatsiya , tarix, ganch yirik o‘yma, chuqur o‘yma, yassi o‘yma, qirma, zamini ko‘zguli o‘yma, zamini rangli o‘yma, chizma pardozi, panjarasimon o‘yma, zanjira, arxeologiya, ta’mirshunos.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УКРАШЕНИЙ ИЗ ГАНЧА В ИНТЕРЬЕРАХ ПАМЯТНИКОВ УЗБЕКИСТАНА XI-XII ВЕКОВ

А.Р.Матязов

старший преподаватель кафедры " Прикладное изобразительное искусство ",
Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода,
Ташкент, Узбекистан.

Аннотация: Статья посвящена ганчевым орнаментам Узбекистана XI-XII веков. Гордость нашего искусства гравюры – несравненное и бесценное сокровище. Не подлежит сомнению, что ее углубленное изучение имеет научное и практическое значение. Искусство резьбы по Ганчу развивалось на протяжении веков и приобрело уникальный стиль. Если рассмотреть и изучить развитие этого искусства в древнейшем, средневековом и XX веке, то резьба по ганчу этих периодов совершенно не похожа друг на друга.

Ключевые слова: Древние памятники, реставрация, гравюра, консервация, история, гравюра, глубокая гравюра, плоская гравюра, резьба, зеркальная гравюра зами, цветная гравюра зами, рисунок декора, решетчатая резьба, занджир, археология, мастер-ремонтник.

THE USE OF GANCH DECORATIONS IN THE INTERIORS OF MONUMENTS OF UZBEKISTAN OF THE XI-XII CENTURIES

A.R. Matyazov,

Senior lecturer of the Department of Applied fine arts,
The National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod,
Tashkent, Uzbekistan.

Annotation: This article is about ganch ornaments of Uzbekistan of XI-XII centuries. The pride of our art of engraving is an incomparable and priceless treasure. There is no doubt that its in-depth study is of scientific and practical importance. The art of Ganch carving has evolved over the centuries with a unique style. If we examine and study the development of this art in the oldest, middle ages and the 20th century, the ganch carvings of these periods are completely different from each other.

Key words: Ancient monuments, restoration, engraving, conservation, history, engraving, deep engraving, flat engraving, carving, zami mirror engraving, zami colored engraving, drawing decoration, lattice carving, zanjira, archeology, repairman.

Ganchkorlik qadimiy san’at turlaridan biri bo’lib, o’z aksi husn-jamolini dunyo me’morchiligida, shu jumladan O’rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg’oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me’morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniksa, O’rta Osiyoda yaratilgan asarlar o’ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O’zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko’pgina yodgorlik obidalariga ko’rkamlik, go’zallik baxsh etib turibdi. U Samar-qand, Buxoro, Toshkent, Qo’qon, Marg’ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan. Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan xohlagancha shakllarni o’yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so’ng qattiq toshga o’xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan-avlodga o’tib tarixiy an’ana sifatida rivojlanib boryapti. Ganchkorlik – san’atimiz faxri, beqiyos va bebaho xazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o’rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch o’ymakorligi turini tanlash, qo’llash o’z-o’zidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xonaga mayda tekis o’ymakor va unga mos bo’lgan pardozi turi, katta mehmonxonalarga (zallarga) esa yirik yoyma va o’ziga xos ganch o’ymakorligi qo’llaniladi. Ganch o’ymakorligi, yirik o’yma, chuqur o’yma, yassi o’yma, qirma, zamini ko’zguli o’yma, zamini rangli o’yma, chizma pardozi, panjarasimon o’yma, zanjira, hajmli o’yma turlaridan iborat. Bundan tashqari, ganch o’ymakorligi turlari zaminli va zaminsiz o’ymalarga bo’linadi. Ganch qorishmasi

yangiligida oson kesiladi, undan xoxlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatlaridan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan avlodga o'tib tarixiy an'ana sifatida rivojlanib borayapti. Ganchkorlik san'atimiz faxri, beqiyos va bebaho hazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib kelgan. Bu san'atning eng qadimgi, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan. III asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalari o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi III-IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, palmetta, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa gorelefli ishlangan baliq tasvirida o'yilgan ganch namunasini ko'rsatish mumkin. Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olganidan keyin islom dini xukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni ta'qiqladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII-VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san'atning xilma-xil namunalari saqlangan. Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o'ymakorligi namunalarida to'liqsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o'simliksimon naqshning islimi turi ko'p ishlatilgan. X-XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlangan. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan qismiga ham qo'yilgan. Har xil geometrik shaklli qilib g'isht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida X-XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan.

Ayniqsa izora (panel) ganchi topilgan bo'lib, unda geometrik va o'simliksimon naqshning chuqur o'ymalari ishlatilgan. O'yma chuqurligi 2-3 sm bo'lgan, naqsh qoramtir soya xisobiga aniq oppoq bo'lib ko'rinib turibdi. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devor sirtiga to'ppa-to'g'ri chizilib o'yilgan. O'sha davr ustalar axtadan(ulgudan) foydalanmaganlar. Binolarning tashqi qismiga esa quyma asosida ganch ishlari bajarilgan. III asrlarda murakkab naqshlar paydo bo'ladi. Ustalar tabiatdan o'simlik va hayvonlarning tasvirini stillashtirib, ganch o'ymakorligida

ishlatganlar. Shu devorlarda o‘yning chuqurligi 7 mm dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyon, ustun va peshtoqlariga ganch o‘yma ishlatilgan. Farg‘ona vodiysida XII asrda bezak bezak sifatida har xil plitkasimon o‘yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch bilan bezatish keng avj olganligini ko‘rsatadi. O‘zgan yodgorliklari shartli ravishda shimoliy, o‘rta, janubiy deb nomlangan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari, ravoqlari juda ham nafis o‘yma naqshlar bilan ishlangan. Mavorounnahrda ganchkorlik san‘ati, ayniqsa ravnaq topgan, me‘morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko‘tarilgan. Unda fantastik hayvonlarning tasvirini ko‘rish mumkin. Termiz maqbaralaridagi ganch o‘ymakorlik san‘ati o‘sha davrning yuqori cho‘qqisi desa bo‘ladi. XII asrda muqarnaslar xosil bo‘ladi va ko‘pgina binolarda ishlanila boshlangan. Muqarnaslar oddiy ganch o‘ymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo‘llanila boshlandi. Binolarnig ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi. Termiz hukumdorlar saroyini qazish paytida ganch panjara, rangdor oyna, ganchga bo‘yab ishlangan tasvir qoldiklari topilgan. Saroy bir necha marta ta‘mir etilgan. 12-asrda zal interyeri ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan, devorlarga afsonaviy maxluklarning tasvirlari ishlangan. 1220 yilda Termizni Chingizxon qo‘shinlari qamal qilgan, qattiq qarshilik ko‘rsatilgani uchun saroy boshqa ko‘pgina binolar qatori vayron qilingan, xarobalar saqlanmagan.

Termizshohlar saroyi XI asrda qurilgan baland devorlar bilan o‘ralgan katta inshoot bo‘lgan. Saroy jamlanmasi katta hudud (7 gektar)ni tashkil etib, to‘rtburchak tarxda qurilgan. Saroyning bosh fasadida yirik peshtoqli eshik to‘rt burchakli hovliga olib kiradi. Imoratlar bilan o‘ralgan keng hovli o‘rtasida sopol quvurlar suv bilan ta‘minlanib turuvchi 8,5x8,5 metrli hovuz, mehmonxona (dahlizli katta zal) oldida 4 ta kvadrat ustunli ayvon bo‘lgan.

Bosh eshik qarshisida peshtoq ayvonli cho‘zinchoq qabulxona zali bo‘lib, uning uch tomonidan ikki qavatli gumbazlar o‘ragan, old tomoni ochiq bo‘lgan. Shu tomon qimmatbaho parda bilan to‘silgan. Shu cho‘zinchoq xona to‘rida podshoh taxti turardi.

XII asrda (1129-1130 yillari) g‘aznalik Sulton Abdul Muzaffar Bahromshoh tomonidan yangi bezaklar bilan saroyning qabul zali esa ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan, unga uch qavatli kesma bezak berilgan, devorlariga afsonaviy mahluqlarning tasviri tushirilgan.

Imorat g‘ishtdan ustalik bilan, qandasa to‘ri asosida terilgan, tagi (poli) pishshiq g‘isht yotqizilgan.

1220 yilda Termizni Chingizxon qo‘shinlari qamal qilgan. Termizliklar qattiq qarshilik ko‘rsatganligi uchun saroy, boshqa ko‘pgina imoratlar qatorida obdon ta‘mirlanayotgan vaqtda vayron qilinadi. Qurilish materiallar, bo‘yoq va ganch idishlari qoldiqlari buning guvohidir. Xarobalar saqlanmagan. Termizshohlar saroyi uch davr qurilishi bo‘lib, o‘rta asr me‘morchiligining o‘ziga xos va betakror na‘munasi

bo'lgan.

Ko'pgina joylarda geometrik nakshlar, o'simlik nakshi, bilan birgalikda uchraydi. Bunda ham biz Termiz ganchkorlarining yuqori malakali usta ekanligining guvohi bo'lamiz. Har bir naqsh o'zining betakrorligi, mukammalligi, tiniq ishlanganligi bilan ajralib turadi. Qabulxonaga tashrif buyurganlarni janubiy devorda tasvirlangan g'ayri oddiy xayvonlarning rasmi hayratga solgan. Chunki bu g'ayritabiiy xayvonlar juda mahorat bilan o'yib shplangan. Shubhasiz kabulxonaning o'yma naqshlari mehmonlarga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatgan. Bir tomondan kabulxonaning go'zalligi, nakshlarning nafisligi mehmonga sirli ta'sir ko'rsatsa, ikkinchitmondan g'ayri oddiy hayvonlarning tasviri bu sirlikni yanada oshirgan, ta'sirchanlikni kuchaytirgan. Buning ustiga kabulxonaning tomida joylashgan turli rangdagi shishalar bilan bezatilgan panjara orkali tushayetgan yorug'lik zalga yanada sirlilik bag'ishlagan.

Mehmonlar saroyning maxobatidan, go'zalligidan hayratga tushganlar. Qabulxonaning ko'rinishi va ichki bezaklari asrlar davomida katta kismi yemirilganiga qaramasdan, o'zining ilk ta'sirchanligini hozir ham yo'qotmagan.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES:

1. С.Булатов ”Ўзбекистон халқ амалий безак санъати”Т “Мехнат”,1991 . 7-бет
2. И.А. Каримов. «Тарихий хотирасиз келажак йўқ», Т., «Ўзбекистон», 1997.
3. М.Ахмедова. “Нодир ва бетакроп ёдгорликлар халқимизнинг бебаҳо мулки”. 16.04.2014 йил
4. М.Ахмедова. “Нодир ва бетакроп ёдгорликлар халқимизнинг бебаҳо мулки”. 16.04.2014 йил
5. Зиёмухамедов Б. “Илм ҳикмати”, Монография. Т.: 1999. 222 б.
6. Кароматов Х. “Ўзбекистонда мозий эътиқодлари тарихи”, Услубий қўлланма. Т.: 2008. – 242 б.
7. Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.